



**SIRDARYO VILOYATI
STATISTIKA BOSHQARMASI**



**SIRDARYO VILOYATINING SANOAT
ISHLAB CHIQRISHI**

2023- YIL YANVAR-SENTABR OYLARI




Sirdaryo viloyatining sanoat ishlab chiqarishi


(2023- yil yanvar-sentabr oylarida)

2023- yilning yanvar-sentabr oylarida viloyat korxonalari tomonidan 10 694,8 mlrd. soʻmlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan boʻlib, 2022- yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan sanoat ishlab chiqarishining fizik hajm indeksi* 107,1 % ni tashkil etdi.

Sanoat ishlab chiqarishi tarkibida eng katta ulush ishlab chiqarish sanoati hissasiga toʻgʻri kelib, uning jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi 58,1 % ni tashkil etdi.




Asosiy iqtisodiy faoliyat turlari boʻyicha sanoat ishlab chiqarishi, FHI* % da



*Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi oʻzgarishini tavsiflovchi nisbiy koʻrsatkichdir.

Jami sanoat ishlab chiqarishi fizik hajmi o'sishining asosiy omili bo'lib, elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash – 13,0 % ga o'sishi kuzatildi.

Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoati



Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan 2023- yilning yanvar-sentabr oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 64,8 mlrd. so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,6 % ni tashkil etdi.

Jami sanoat ishlab chiqarishi hajmidagi ulushi, foizda

2022- yil

B

0,7 %

2023- yil

B

0,6 %


Yanvar-sentabr

Ishlab chiqaradigan sanoat

mln. so'm

Yanvar-sentabr

FHI,% da



2023- yilning yanvar-sentabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 6215,0 mlrd. so'mni yoki jami sanoat mahsulotlarining 58,1 % ni tashkil etdi.

2022- yil
yanvar-sentabr


57,0 %

2023- yil
yanvar-sentabr

58,1 %

O'tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 4,7 % ni (2022- yilning yanvar-sentabr oylarida – 5,2 %), o'rta-yuqori texnologiyali – 3,0 % (3,9 %), o'rta-quyi texnologiyali – 21,7 % (17,8 %) va quyi texnologiyalisi – 70,6 % (73,1 %) ni tashkil etdi.

■ 2022- yil ■ 2023- yil




Jami ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida asosiy farmatsevtika mahsulotlari va preparatlarni ishlab chiqarish sohasining ulushi – 4,7 % (2022- yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 107,6 %), boshqa no metall mineral mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi – 9,3 % (2022- yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 101,9 %), to'qimachilik, kiyim, teri mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 37,2 % (2022- yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 101,3 %), oziq-ovqat, ichimliklar va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 30,1 % (2022- yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 124,8 %), kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlarini ishlab chiqarishning ulushi – 1,8 % (2022- yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 68,0 %) ni tashkil etdi.


Ishlab chiqaradigan sanoatda ayrim turdagi mahsulotlarning o'sish sur'ati

O'tgan yilning mos davriga nisbatan, % da *


Yirik shoxli qoramollar uchun ozuqa



Kepak




Tarkibida alkaloidlar bo'lgan yoki bo'lmagan, lekin gormonlar yoki antibiotiklar bo'lmagan medikamentlar



Yumshoq bug'doy va spelta uni




Sellyuloza




* Yanvar-sentabr oylari yirik korxonalar bo'yicha


Aroq



Paxta, bint va shu kabi mahsulotlar




Boshqa plastmassalardan qoplar va sumkalar




Paxta tolasi



Paxta chigiti



Kalava ip




2023- yilning yanvar-sentabr oylari davomida ishlab chiqaradigan sanoatda 15,0 ming tonna boshqa plastmassalardan qoplar va sumkalar (2022-yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan 6,2 % ga ko'paygan), 1,2 ming tonna paxta, bint va shu kabi mahsulotlar (33,7 % oshgan) hamda 31,4 ming tonna yumshoq bug'doy va spelta uni (34,3 % ga kamayib) ishlab chiqarilib, past o'sish sur'atlari kuzatildi.

Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish


Sanoat mahsulotlari	2022- yil yanvar-sentabr	2023- yil yanvar-sentabr	Farqi +/-
<i>Yirik shoxli qoramollar uchun ozuqa, tonna</i>	14603,0	2852,0	-11751
<i>Paxta, bint va shu kabi mahsulotlar , tonna</i>	876,8	1172,3	295,2
<i>Boshqa plastmassalardan qoplar va sumkalar, ming t.</i>	14,2	15,0	-0,8
<i>Yumshoq bug'doy va spelta uni, ming t.</i>	47,8	31,4	-16,4
<i>Paxta tolasi, ming t.</i>	15,2	23,0	7,8

Qog'oz va qog'oz mahsulotlari ishlab chiqarish

2022- yilda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida qog'oz va qog'oz mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati ulushi 0,1 % ni tashkil etib, uning fizik hajm indeksi 41,0 % ga ko'paygan bo'lsa, 2023- yilning yanvar-sentabr oylari yakunlariga ko'ra, qog'oz va qog'oz mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ulushi 0,2 % gacha ko'paydi, fizik hajm indeksi esa, 2,6 martaga ko'paydi va ishlab chiqarish hajmi 14,5 mlrd. so'mni tashkil etdi.




Boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish



2022- yilda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishning ulushi 10,1 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 87,0 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2023- yilning yanvar-sentabr oylari yakunlariga ko'ra, boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishning ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 10,1 % ni tashkil etdi, o'tgan yilga nisbatan fizik hajm indeksi esa 1,9 % ga ko'paygan va ishlab chiqarish hajmi 483,9 mlrd. so'mni tashkil etdi.


Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati

2022- yilda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 28,6 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 91,6 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2023- yilning yanvar-sentabr oylari yakunlariga ko'ra, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 29,8 % ni tashkil etdi, o'tgan yilga nisbatan fizik hajm indeksi esa 26,4 % ga o'sgan va ishlab chiqarish hajmi 1851,5 mlrd. so'mni tashkil etdi.




Ichimliklar ishlab chiqarish sanoati

2022- yilda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 0,7 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 83,4 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2023- yilning yanvar-sentabr oylari yakunlariga ko'ra, ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 0,3 % ni tashkil etdi, o'tgan yilga nisbatan fizik hajm indeksi esa 58,5 % ni va ishlab chiqarish hajmi 19,3 mlrd. so'mni tashkil etdi.



To'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati




2022- yilda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 29,8 % ni tashkil etgan bo'lsa, uning fizik hajm indeksi 155,6 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2023- yilning yanvar-sentabr oylarida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 30,4 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi 15,9 % ga o'sgan bo'lsa, ishlab chiqarish hajmi 1890,5 mlrd. so'mni tashkil etdi.

Kiyim ishlab chiqarish sanoati


2022- yil yakunlariga ko'ra, kiyim ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 4,7 % ni, fizik hajm indeksi esa 68,6 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2023- yilning yanvar-sentabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 3,6 %, fizik hajm indeksi 71,8 % ni, ishlab chiqarish hajmi esa 226,1 mlrd. so'mni tashkil etdi.




Kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish

2022- yil yakunlariga ko'ra kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,9 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 57,8 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2023- yilning yanvar-sentabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,5 % ni, fizik hajm indeksi 49,6 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 28,4 mlrd. so'mni tashkil etdi.



Asosiy farmatsevtika mahsulotlari va preparatlari ishlab chiqarish




2022- yil yakunlariga ko'ra, asosiy farmatsevtika mahsulotlari va preparatlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 5,2 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 137,4 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2023- yilning yanvar-sentabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 4,7 % ni, fizik hajm indeksi 107,6 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 291,5 mlrd. so'mni tashkil etdi.

Rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish


2022- yil yakunlariga ko'ra, rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 2,0 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 60,4 % ni tashkil etgan .

Shuningdek, 2023- yilning yanvar-sentabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 1,3 % ni, fizik hajm indeksi 74,4 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 80,7 mlrd. so'mni tashkil etdi.



Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 4369,1 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 40,9 %) ni tashkil etdi. 2023- yilning yanvar-sentabr oylarida, sanoatning mazkur tarmog'ida elektr energiyani ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash, bug' bilan ta'minlash tizimlari va havoni konditsiyalashning o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 13,0 % ga oshganligi kuzatildi.




Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2022- yil yanvar-sentabr	2023- yil yanvar-sentabr	Farqi +/-
Elektroenergiya, mln.kVt.s	12186,4	12374,3	187,9
Issiqlik energiyasi, ming gkal	149,5	98,0	-51,5

yanvar-sentabr oylari yirik korxonalar bo'yicha

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 45,9 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,4 %) ni tashkil etdi.


Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish sohasida yirik sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2022- yil yanvar-sentabr	2023- yil yanvar-sentabr	Farqi +/-
Suvni yig'ish, qayta ishlash va taqsimlash bo'yicha xizmatlar, <i>mlrd.so'm</i>	29,2	30,7	1,5
Chiqindilarni yig'ish, ishlov berish, yo'qotish, utilizatsiya qilish bo'yicha xizmatlar, <i>mlrd.so'm</i>	11,6	11,1	-0,5

O'tgan yilning mos davriga nisbatan suvni yig'ish, qayta ishlash va taqsimlash bo'yicha xizmatlar 49,8 % ga kamaygan hamda chiqindilarni yig'ish, ishlov berish, yo'qotish, utilizatsiya qilish bo'yicha xizmatlar 0,8 % ga kamayishi kuzatildi.

Iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish

Tayyor mahsulot turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 2240,9 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2022- yilning mos davriga nisbatan 112,6 % ni, uning jami sanoatdagi ulushi 21,0 % ni tashkil etdi.

Oziq-ovqat mahsulotlari

2022- yil
yanvar-sentabr

77,3%

2023- yil
yanvar-sentabr

77,5%

Nooziq-ovqat mahsulotlar

2022- yil
yanvar-sentabr

22,7%

2023- yil
yanvar-sentabr


22,5%

Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish tarkibida vino va aroq mahsulotlari va pivo 0,9 % (2022- yil yanvar-sentabr oylarida 60,0 %) ni tashkil etdi. Hududlar kesimida iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Yangiyer shahriga to'g'ri kelib 20,1 % , Sirdaryo tumani 20,0 %, Guliston shahri 19,8 % hamda Boyovut tumani 6,7 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining o'sish sur'atida viloyat o'sish sur'ati (112,6 %) darajasidan yuqori ko'rsatkich Yangiyer shahri (189,2 %), Sardoba tumani (178,1 %), Oqoltin tumani (145,7 %) hamda Guliston tumani (137,1 %) qayd etildi.

Hududlar bo'yicha iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati

Hududlar kesimida iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Yangiyer shahriga to'g'ri kelib, 20,1 %, shuningdek, Sirdaryo tumani 20,1 % ni, Guliston shahri 19,8 % ni, Boyovut tumani 6,7 % ni tashkil etdi.



2908,8 mlrd. so'm


2021-yil yanvar-sentabr

1761,7 mlrd. so'm

2022-yil yanvar-sentabr

2240,9 mlrd. so'm

2023-yil yanvar-sentabr



Jami sanoat ishlab chiqarishi hajmida iste'mol mahsulotlarining ulushi

2021-yil

124,5 %

2022-yil

128,3 %

2023-yil

112,6 %

o'sish sur'ati

mlrd. so'm

Hududlar bo'yicha nooziq-ovqat mahsulotlar ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati

Hududlar kesimida nooziq-ovqat mahsulotlar ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Sirdaryo tumaniga to'g'ri kelib, 26,6 %, shuningdek, Guliston shahri 26,5 % ni, Mirzaobod tumani 11,3 % ni, Sardoba tumani 8,7 % ni tashkil etdi.

1494,4 mlrd. so'm


2021- yil yanvar-sentabr

2448,7 mlrd. so'm


2022- yil yanvar-sentabr

504,0 mlrd. so'm

2023- yil yanvar-sentabr



Jami iste'mol mollari ishlab chiqarish hajmida nooziq- ovqat mahsulotlarning ulushi






o'sish sur'ati

mlrd. so'm

Hududlar bo'yicha oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati




Hududlar kesimida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Yangiyer shahriga to'g'ri kelib, 24,0 % ni, shuningdek, Sirdaryo tumani 18,0 % ni, Guliston shahri esa 17,9 % ni tashkil etdi.



Sirdaryo viloyati hududlari kesimida sanoat ishlab chiqarishi hajmlari

Hududlar kesimida sanoat ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Shirin shahriga to'g'ri kelib, 43,5 % ni, shuningdek, Sirdaryo tumani 21,9 % ni, Guliston shahri esa 7,7% ni va Yangiyer shahri 6,1 % ni tashkil etdi.

Sirdaryo viloyati




FHI, % da

mlrd. so'm

Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish

Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning taqsimlanishi, yirik sanoat korxonalari joylashganligi hisobiga Shirin shahri (240160,1 ming so'm), Sirdaryo tumani (17245,9 ming so'm) hamda Yangiyer shahri (13886,6 ming so'm) o'rtacha viloyat darajasi ko'rsatkichidan (11841,9 ming so'm) ancha yuqoriligini ko'rsatmoqda.



Sirdaryo viloyati

2021- yil

7891,0 ming so'm

2022- yil

9497,0 ming so'm

2023- yil

11841,9 ming so'm



01

2021- yil

116,4 %

02

2022- yil

108,3 %

03

2023- yil


105,0 %

o'sish sur'ati

ming so'm

Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi



Hisobot davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 3398,0 mlrd. soʻmlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarilib, uning umumiy ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 31,8 % ni tashkil etdi.



Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish

Viloyat bo'yicha aholi jon boshiga iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishi 2481,3 ming so'm bo'lgani holda, Yangiyer shahrida– 9526,1 ming so'mni, Guliston shahrida– 4570,5 ming so'mni va Sirdaryo tumanida– 3297,0 ming so'mni tashkil etdi.


Sirdaryo viloyati



o'sish sur'ati
ming. so'm

Viloyatda faoliyat ko'rsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari


Bugungi kunda viloyatimizda 1546 ta sanoat korxonalari faoliyat ko'rsatmoqda, shundan 329 tasi (ro'yxatdan o'tgan korxonalar umumiy sonining 21,3 %) Guliston shahriga, 229 tasi (14,8 %) Sirdaryo tumaniga, 154 tasi (10,0 %) Mirzaobod tumaniga, 152 tasi (9,8 %) Boyovut tumaniga va 151 tasi (9,8 %) Yangiyer shahriga to'g'ri kelmoqda.



Jami yangi tashkil etilgan



Jami faoliyat yuritayotgan



Tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliyashtirish dasturining amalga oshirilishi

Viloyatimizda sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning yuqori o'sish sur'atlariga erishishda tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliyashtirish dasturining amalga oshirilishi ham o'z ta'sirini ko'rsatdi. Mazkur dastur doirasida kiritilgan 54 ta loyiha bo'yicha 1459,2 mlrd. so'mlik mahsulotlar ishlab chiqarildi. Mahalliyashtirish dasturi doirasida ishlab chiqarilgan mahsulotlardan 31,0 mln. AQSH dollari miqdorida eksport qilindi.



Mahalliyashtirish dasturi doirasida 2023- yilning yanvar-sentabr oylarida 488 ta yangi ish o'rinlari yaratildi o'tgan yilning mos davri bilan taqqoslaganda yangi tashkil etilgan ish o'rinlari soni 20,3 % ga kamaygan. Shu bilan birga, 2022- yilning yanvar- sentabr oylariga nisbatan mahalliyashtirilgan mahsulotlar eksporti hajmining o'sganligi kuzatildi.